

**QISHLOQ XO'JALIGIDA OQSILGA BOY
MAHSULOTLARNI YETISHTIRISH**

Dedajanova Xilola Baxtiyor qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

1b-22 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada oqsilga boy bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilish zaruriyati, oqsilga boy mahsulotlarni yetishtirishda qishloq xshjaligini o'rni bayon etilgan. Hamda qishloq xo'jaligida oqsilga boy bo'lgan ayrim turdagi yetishtirilayotgan mahsulotlarning ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Shuningdek, dehqonchilik sohasidagi ayrim muammolar ko'rsatib o'tilgan va tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oqsilga boy mahsulotlar, sog'lom turmush tarzi, oziq-ovqat xavfsizligi, protein yetishmasligi, parranda go'shti, bedana va tovuq tuxumi, boshqoli donlar, chorvachilik.

Abstract: The article describes the need to consume protein-rich products, the role of agriculture in the production of protein-rich products. Also, the indicators of certain types of agricultural products rich in protein were analyzed. Also, some problems in the field of agriculture were pointed out and relevant recommendations were developed.

Key words: protein-rich products, healthy lifestyle, food safety, protein deficiency, poultry meat, quail and chicken eggs, cereals, animal husbandry.

Kirish

Inson uzoq umr ko'rishni xohlaydi. SHuning uchun sog'lom bo'lishga yordam beradigan mahsulotlarni tez-tez iste'mol qilish, shuningdek, sport bilan shug'ullanish va stressni nazorat qilishga harakat qilish lozim. Bunda asosan oqsilga boy mahsulotlar alohida ahamiyatga egadir. Qishloq xo'jaligida ko'plab oqsilga boy mahsulotlar yetishtiriladi. Tuxum, go'sht, yong'oq, sut mahsulotlari — bularning barchasi uzoq umr ko'rishni istaganlar uchun iste'mol qilishi kerak bo'lgan mahsulotlar hisoblanadi. Oqsil organizmni o'zini o'zi tiklashi uchun zarur, uni yetarli darajada iste'mol qilish lozim.

Inson salomatligi borasida prezidentimiz o'z ma'ruzalarida: "Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz. Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir."- deb ta'kidlab o'tganlar [1].

Davlatimiz rahbari tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'lida nafaqat industrial, balki mahallabay usulda ishlash dasturlariga asosan ulkan tub islohotlar amalga oshirildi. Bu sa'y-harakatlar natijalarini Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan Indeks o'rganish natijalarida ham ko'rish mumkin. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, 2019-2022 yillar bo'yicha umumiy reytingda O'zbekiston 12 o'ringa ko'tarilgan, 2022 yilda 113 ta

mamlakat orasida 73-o'rinni egallagan. Shuningdek, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha eng yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishgan 10 mamlakat ichida birinchi o'rinda qayd etilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston reytinglarda "Iqtisodiy foydalana olish imkoniyati" kategoriyasi bo'yicha 18 o'ringa, "Sifat va xavfsizlik" kategoriyasi bo'yicha 3 o'ringa, "Barqarorlik va moslashish" kategoriyasi bo'yicha 36 o'ringa ko'tarilgani e'tirof etilmoqda[2].

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, inson salomatligi va uni yaxshilash borasida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qishloq xo'jaligi sohasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu sohada mavjud muammolarni xal etish, sohani rivojlantirish bugunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Oqsil yetishmasligini odamning umumiy ahvoli va tashqi ko'rinishidan darrov bilib olsa bo'ladi. Jismoniy kuch va mushaklar faolligidan tashqari, aqliy faoliyat ham keskin pasayadi. Shuning uchun organizmda proteinlar kamayishining sabablarini va ularni bartaraf etish yo'llarini bilish juda muhimdir.

Organizmda protein yetishmasligining asosiy sababi – tarkibida oqsil moddasi bo'lgan ovqatlarning kam iste'mol qilinishi. Organizmda oqsil yetishmovchiligini bartaraf etish uchun tarkibida oqsil moddasi ko'p bo'lgan mahsulotlarni me'yorida iste'mol qilish tavsiya qilinadi. Bu oziq-ovqat mahsulotlariga - parranda go'shti (kurka, tovuq, o'rdak); yog'siz mol go'shti; bedana va tovuq tuxumi; yasmiq (chechevitsa), loviya; boshoqli donlar (suli, arpa, bug'doy); butundonli non; achitilgan sut mahsulotlari kiradi. Demak bu mahsulotlar qishloq xo'jaligidagi yetishtiriladigan asosiy mahsulotlardan sanaladi.

Ma'lumki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sanaladi. Unda 3,6 million kishi, ya'ni iqtisodiyotda band bo'lganlarning 27 foizi ishlaydi. YaIMda tarmoq ulushi 32 foizga teng bo'lsa, sohada foydalaniladigan yer maydonlari respublika hududining 45 foizini egallaydi. Hozirgi vaqtda 180 dan ortiq turdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 80 dan ortiq mamlakatga eksport qilinayotgani diqqatga sazovor albatta. Yana bir e'tiborli jihati, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yilib, u keng quloq yozyapti. Ular bilan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining 62 foizi paxta-to'qimachilikda, 8 foizi chorvachilikda va 7,5 foizi meva-sabzavotchilikda qamrab olingani buning tasdig'idir [7].

Bugungi kunda oqsil mahsulotlarini yetishtirib beruvchi sohalardan biri bo'lgan chorvachilik sohasida mahsulotlar yetishtirib berish hajmi ortib bormoqda.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 2 833,3 ming tonna go'sht, 11 968,7 ming tonna sut, 8 487,5 mln. dona tuxum, 38,6 ming tonna qirqib olingan jun, 1 321,1 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 198,9 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, sog'ib olingan sut – 102,9 % ni, olingan tuxum – 104,4 % ni, qirqib olingan jun – 103,6 % ni, olingan qorako'l teri – 102,6 % ni hamda ovlangan baliqlar – 107,3 % ni tashkil qildi [9].

1-jadval

2023 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

Mahsulot turlari	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		fermer xo'jaliklari	
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda)	2 833,3	103,9	179,0	105,1	2 406,6	102,0	247,7	126,6
Sut	11 968,7	102,9	706,7	112,2	11 104,7	102,2	157,3	116,0
Tuxum, mln. dona	8 487,5	104,4	1 329,8	111,0	4 912,8	102,2	2 244,9	105,6

2023 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 6,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 84,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 5,9 % i fermer xo'jaliklari, 92,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 15,7 % i fermer xo'jaliklariga, 57,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2 -jadval

Hududlar kesimida go'sht (tirik vaznda) yetishtirish

Hududlar	Hajm ming t	O'sish sur'ati, % da	Hududlar ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	2 833,3	103,9	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	123,8	102,4	4,4
Andijon	193,0	104,6	6,8
Buxoro	297,8	103,9	10,5
Jizzax	237,3	102,3	8,4
Qashqadaryo	325,9	103,3	11,5
Navoiy	188,3	103,7	6,6
Namangan	175,9	104,1	6,2
Samarqand	326,1	103,6	11,5

Surxondaryo	214,2	102,0	7,6
Sirdaryo	73,3	103,4	2,6
Toshkent	306,8	107,4	10,8
Farg'ona	186,0	103,3	6,6
Xorazm	184,9	105,8	6,5

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida Respublikada 2 833,3 ming tonna go'sht yetishtirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022 yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil qildi. Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishda 2022 yilning mos davriga nisbatan fermer xo'jaliklarida 5,1 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,0 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 26,6 % o'sish qayd etildi [9].

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida Respublikada 11 968,7 ming tonna sut yetishtirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022 yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil qildi.

3-jadval

Hududlar kesimida sut yetishtirish

Hududlar	Hajm ming t	O'sish sur'ati, % da	Hududlar ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	11 968,7	102,9	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	448,2	103,2	3,7
Andijon	1 090,1	104,8	9,1
Buxoro	1 088,9	103,5	9,1
Jizzax	694,1	102,8	5,8
Qashqadaryo	1 306,8	102,3	10,9
Navoiy	539,3	103,5	4,5
Namangan	774,3	102,3	6,5
Samarqand	1 403,5	102,4	11,7
Surxondaryo	951,0	101,4	8,0
Sirdaryo	394,1	103,1	3,3
Toshkent	1 029,1	105,4	8,6
Farg'ona	1 138,4	103,1	9,5
Xorazm	1 110,9	101,1	9,3

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sut yetishtirishda 2022 yilning mos davriga nisbatan fermer xo'jaliklarida 12,2 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,2 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 16,0 % o'sish qayd etildi [9].

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida Respublikada 8 487,5 mln. dona tuxum yetishtirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022 yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida tuxum yetishtirish

Hududlar	Hajm ming t	O'sish sur'ati, % da	Hududlar ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	8 487,5	104,4	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	398,3	102,9	4,7
Andijon	756,8	102,1	8,9
Buxoro	541,9	104,3	6,4
Jizzax	419,9	111,7	4,9
Qashqadaryo	567,2	104,2	6,7
Navoiy	406,7	105,5	4,8
Namangan	676,5	103,9	8,0
Samarqand	1 312,5	101,0	15,5
Surxondaryo	589,1	108,7	6,9
Sirdaryo	199,9	103,3	2,3
Toshkent	1 521,7	104,8	17,9
Farg'ona	616,8	110,5	7,3
Xorazm	480,2	100,3	5,7

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tuxum yetishtirishda 2022 yilning mos davriga nisbatan fermer xo'jaliklarida 11,0 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,2 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 5,6 % o'sish qayd etildi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlilidan ma'lumki, sohada mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'sib borgan. Lekin bu soha muammolardan xoli degani emasdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki sohada yechimini kutayotgan – mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va eksportga yo'naltirishni ko'paytirish [3,6], sohaga innovatsiyalarni tadbqiq etish [5], axborot bilan ta'minlash [4], sohada yetarli bilim va malakalarga ega bo'lgan kadrlarga ehtiyojni yuqoligi [8], imkoniyatlardan to'la foydalanilmaslik xolatlari va boshqa shu kabi muammolar bor. Shuningdek, uni yanada rivojlanishi uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar mavjuddir.

Xulosa va takliflar

Inson salomatligini ta'minlash va uni tiklashda oqsilga boy bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilish – inson umrini uzaytirish garovidir. Bunda asosan qishloq xo'jaligi asosiy rol o'ynaydi. Bu esa sohani yanada rivojlantirish, fermerlar daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tabiiy resurslardan barqaror foydalanish borasida foydalanilmayotgan bir qator imkoniyatlarni ishga solishni taqazo etadi.

Sohadagi muammolarni bartaraf etish hamda sohani rivojlantirish borasida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin - oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligiga qarshi kurashish; qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini va eksport salohiyatini oshirish; eksport-import operatsiyalarini tartibga solish, ehtiyoj katta bo'lgan oziq-ovqat tovarlarini import qilishdagi to'siqlarni bartaraf etish, nosog'lom raqobat, narx-navoning sun'iy oshirilishiga chek qo'yish, taqchilikning yuzaga

kelishini oldini olish, xorijiy investorlar va hamkorlar bilan muntazam muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish va boshqa shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.12.2018. <https://pm.gov.uz/uz/lists/view/203>
2. Шарипов Қ. Халқаро форматдаги озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда бир-бирини тўлдириш ҳамкорлиги. <https://yuz.uz/news/xalqaro-formatdagi-oziq-ovqat-xavfsizligini-taminlashda-bir-birini-toldirish-hamkorligi>
3. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТ В НАУКУ № 3 (27) 2019. [https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)
4. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).
5. Dedajanov, B., & Sobirov, M. (2021). The essence of innovative activity and analysis indicators. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1978-1990.
6. Dedajanov, B. N., & Ergasheva, F. I. (2019). ISSUES OF SUPPORT AND STIMULATION OF EXPORTING ENTERPRISES AND WAYS OF THEIR ELIMINATION. *Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова. Вступление. Пут в науку*, (3), 92-103.
7. Холмурадов Р. ва бошқалар. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш – давр талаби. <https://xs.uz/uzkr/post/oziq-ovqat-khavfsizligini-taminlash-davr-talabi>.
8. Nabijanovich, D. B., & qizi, D. X. B. (2024). Oziq-Ovqat Va Qishloq Xo'jaligini Barqaror Rivojlantirish Omillari. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 2(4), 25–28. Retrieved from <https://journals.proindex.uz/index.php/jiesr/article/view/844>
9. О'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>